

ANATOMIYA DARSLARIDA NOSTANDART TEST VA TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISHNING AMALIY AHAMIYATI

Umirov Nurulla Usanovich

O‘qituvchi: Jizzax davlat pedagogika universiteti

E-mail: nurullaumirov65@gmail.com

Usanov Ulug‘bek Nurulla o‘g‘li

O‘qituvchi: Jizzax davlat pedagogika universiteti

Mirsaidov F. S.

Talaba: Jizzax davlat pedagogika universiteti

ANNOTATSIYA

Ta’lim–tarbiya jarayonida teskari aloqani amalga oshirish uchun, ya’ni olingan natijalarni tahlil etish uchun o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish hamda o‘z–o‘zini nazorat qilish jarayoni yo‘lga qo‘yilishi lozim. Talabalar tomonidan ta’lim mazmunining barcha tarkibiy qismlarini o‘zlashtirish darajasini standart test topshiriqlari bilan bir qatorda nostandart test topshiriqlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: nostandart test, nazorat, baholash, reproduktiv, aqliy operatsiyalar.

Respublikamizda uzluksiz ta’limni joriy etish jarayonida ta’lim mazmuni yangilanib bormoqda, o‘quv dasturlari va o‘quv fanlari bo‘yicha DTS hamda malaka talablari modernizatsiyalanmoqda. Ushbu jarayon ta’lim–tarbiya jarayonining boshqa tarkibiy qismlari: o‘qitish metodlari, vositalari va shakllarini innovatsiya kiritish orqali modernizatsiyalashni talab etmoqda.

Bo'lajak bitiruvchilarilarni yetuk mutaxassis bo'lishi, ta'lim–tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari darajasiga ko'tarish, yosh avlodni yuqori malakali kadrlar bo'lib tayyorlash uchun nafaqat sifatli darslik va o'quv qo'llanmalarni yozish, balki samarali o'quv–uslubiy majmuaga asoslangan o'qitish uslubini yaratish ham muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim–tarbiya jarayonida teskari aloqani amalga oshirish uchun, ya'ni olingan natijalarni tahlil etish uchun talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish hamda o'z–o'zini nazorat qilish jarayoni yo'lga qo'yilishi lozim. Shuni qayd qilish lozimki, o'quv kurslari bo'yicha talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun tayyorlangan test topshiriqlari shu kurs darsligidan olingan bo'lib, ularning qiyinlik darajasi reproduktiv, ya'ni o'quv materialini qayta ishlanmasdan, aqliy operatsiyalar bajarilmasdan, xotirada saqlangan ma'lumotlar asosida javob qaytariladigan test topshiriqlari sanaladi. Mazkur test topshiriqlari talabalarning o'zlashtirgan bilimlarini yuzaki aniqlash imkonini beradi, bu holatda ta'lim samaradorligini aniqlash ancha mushkul.

Talabalar tomonidan ta'lim mazmunining barcha tarkibiy qismlarini o'zlashtirish darajasini standart test topshiriqlari bilan bir qatorda nostandart test topshiriqlaridan foydalanish mumkin.

Nostandart test topshiriqlarini tuzishda quyidagi talablar qo'yiladi: test topshirig'i mazmunining to'g'riligi; savolning mantiqiy jihatdan to'g'ri tanlanishi, test topshirig'i shaklini to'g'riligi; test topshirig'ining savol va javob ining qisqaligi; test topshirig'i elementlarining to'g'ri joylashganligi; test topshirig'ining to'g'ri javoblarni bir xil baholanishi; talabalarga test topshirig'ining bajarish bo'yicha bir xil ko'rsatma berilishi; ko'rsatmalarning test topshirig'i va mazmuniga mosligi.

Biz quyida Odam anatomiyasi fanidan “**Qo‘l va oyoq suyaklarining tuzilishi**” mavzusi bo‘yicha talabalarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash va ularni baholash yuzasidan nostandart test topshiriqlaridan ba‘zi namunalarini tavsiya etamiz:

1-topshiriq. Suyaklarni lotincha nomini ularning ta’riflari bilan juftlang.


1	Humerus	A	Odam organizmidagi eng uzun va katta naysimon suyak.
2	Patella	V	Bu suyak uzun naysimon suyaklar turkumiga kiradi. Suyak tanasining yuqori qismi silindr shaklida, pastki qismi uch qirrali bo'ladi.
3	Ulna	C	Bu suyak S shaklida bukilgan uzun naysimon suyak.
4	Clavicula	D	Bu suyak odam organizmidagi eng katta sesamasimon suyak.
5	Femur	B	Bu suyagining tanasi uch qirrali va unda g'altak o'ymasi bor.

Javobi:

Javob:	1-V	2 - D	3 - B	4-C	5-
--------	-----	-------	-------	-----	----

2-topshiriq. Quyida berilgan rasmdagi O‘mrov suyagiga to‘g‘ri keladigan raqamlarni yozing.

Facies articularis acromialis	
linia trapezoidea	
Extremitas acromialis	
Corpus claviculae	
facies articularis extremitas sternalis	
tuberculum conoideum	
impressio lig. costoclavicularis	
extremitas sternalis.	



3-test topshirig‘i . Quyida berilgan fikrlarning qaysilari to‘g‘ri?

Javoblar jadvaliga “ha” yoki “yo‘q” so‘zlarini yozing.

- A. Kurak suyagi yassi, uch qirrali bo‘lib, II-VII qovurg‘alar sohasida joylashadi.
 B. Chanoq suyagi faqat himoya vazifasini bajaradigan g‘ovak suyakdir.
 V. Katta boldir suyagi - tibia deb ataladi.
 G. Oyoq panjasi ikki guruh suyaklardan tashkil topadi.
 D. Proksimal barmoqlar - phalanx proximalis deb ataladi.
 J. Kichik boldir suyagi - fibula (grekcha - peronea) yassi shaklda.
 Z. Qo‘l kaftidagi suyaklar-metacarpus naysimon suyaklar guruhiga kiradi.

Javob:

A	B	V	G	D	J	Z
Ha	Yo‘q	Ha	Yo‘q	Ha	Yo‘q	Ha

Nostandart testlardan foydalanish quyidagi ta’limiy afzalliklarni beradi:

-o‘qituvchining mavzuni kengroq yoritib berish uchun yetarlicha imkoniyatlar mavjud;

-mavzuni o‘rganishga ajratilgan vaqt tejaladi va ko‘proq talabalarni baholash imkoniyati tug‘iladi;

-talabalarining ushbu fanga qiziqishlarini muntazam ravishda ortib boradi;

-agar test nazorati axborot texnologiyalarida tashkil etilsa, kompyuterlar yordamida o‘rganiladigan bilimlarning yuqori darajadagi ko‘rgazmaliligi ta’minlanadi

-talaba fan mavzusini mustaqil o‘zlashtirish imkoniyati vujudga keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi rivojlanish davrida fan va ta’lim ham rivojlanib bormoqda. Shunday ekan ta’limni ham zamonaviy talab darajasiga olib chiqish zarur bo‘lmoqda. Mazkur ishlarni amalga oshirish barobarida talabalar bilimni nazorat qilishning ham yangi usullaridan foydalanishni taqozo qilmoqda. Dars mashg‘ulotida o‘quv maqsadlarini aniqlashda, talabalarining o‘quv maqsadlariga erishish darajasini nazorat qilish va baholashda nostandart test topshiriqlaridan foydalanish, nazoratning haqqoniyliги, keng qamrovliligini ta’minlaydi. Nostandart

testlardan foydalanish orqali talabalarning yangicha fikrlashlari va masofaviy ta'limni samarali tashkil etilishiga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Tolipova J. Pedagogik kvalimetriya. Toshkent.TDPU. 2015.
2. Tolipova J. O., G'ofurov A. T. Biologiya o'qitish metodikasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T. TDPU, 2012.
3. T. G'ofurov va boshqalar “Biologiyani o'qitishning umumiy metodikasi” O'quv metodik qo'llanma. Toshkent. 2005.
4. Baxodirov F.N. Odam anatomiyasi. Darslik. Toshkent.2006.
5. A.Ahmedov, X.Rasulov. Odam anatomiyasi. bolalar anatomiyasi asoslari bilan.Darslik. Toshkent.2010.

